



ISSN (E) - 2181-1334



ILMIY-USLUBIY JURNAL

UzACADEMIA

**НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL**



№ 12 20/03/2021

WWW.ACADEMIASCIENCE.ORG

Volume 2. Issue 1 (12), march 2021





"ACADEMIA SCIENCE" ILMIY-TADQIQOTLAR MARKAZI

UzACADEMIA

**ILMIY-USLUBIY JURNALI
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL ISSN (E)
– 2181 - 1334**

BARCHA SOHALAR BO‘YICHA

**VOL 2, ISSUE 1 (11), MARCH 2021
PART - 1**



www.academiascience.org

UzACADEMIA

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL A B C H A S O H A L A R B O Y I C H A

TAHRIRIYAT

Editor in chief

Eshmatov Gayratjon Marupovich

Executive Secretary

Ravshanjon Abdullayev

*He is a history teacher at Baghdad District
8 Secondary School*

Preparing for publishing

Khalikov Mukhriddin Tavakkaljon ugli
Fergana State University

Bosh muharrir

Eshmatov G‘ayratjon Ma’rupovich

Mas’ul kotib

Ravshanjon Abdullayev

*Bag‘dod tumani 8-umumiy o‘rta ta’lim
maktabi tarix fani o‘qituvchisi*

Nashrga tayyorlovchi

Holiqov Muhriddin Tavakkaljon o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti

TAHRIR KENGASHI A’ZOLARI

Sultonali Mannopov

O‘zbekiston xalq artisti, professor

Eshmetov Izzat Do’simbatovich

*O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi,
texnika fanlari doktori, professor*

Matibaev Taspolat Baltabaevich

Sotsiologiya fanlari doktori (DSc), Professor, Turon FA Akademik

Abdullayev Muzroboj Gulamovich

Andijon davlat universiteti, professor

Akramova Shahnoza Abrorovna

*Milliy gvardiya Xarbiy-texnika instituti Psixologiya va pedagogika kafedrasi mudiri,
Pedagogika fanllari doktori, dotsent*

Arslanov Sharafutdin Sultanovich

kimyo fanlari doktori, professor

Tuychiyeva Inoyat Ibragimovna

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Oripov O‘rolboy Ahmedovich

Navoiy davlat pedagogika instituti, PhD

Fazliyeva Zebo Kamarbekovna

O‘zbekiston davlat Xoreografiya Akademiyasi, dotsent

Akbarov Qobuljon Yakubovich

Qo‘qon davlat pedagogika instituti, tarix fanlari nomzodi

Azimov Baxtiyor Ganievich

O‘zbekiston davlat konservatoriysi, Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Xusanova Xayriniso Tayirovna

O‘zMU, sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent

Smaylova Gulmari Yuldashevna

QRXTHQTMO hududiy markazi, dotsent

Bazarov Otobek Odilovich

Qo‘qon davlat pedagogika instituti, PhD

Popov Dmitriy Vladimirovich

Andijon mashinasozlik instituti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Raximova Gulchexra Sobirjonovna

Qo‘qon davlat pedagogika instituti, PhD

Umarova Maxliyo Yunusovna

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, f.f.n, dotsent

Ismoilova Muhayyo Qozoqboyevna

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,
filologiya fanlari nomzodi*

Toshtemirov Otobek Abidovich

Farg‘ona politexnika instituti



MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

1.	НУТҚИЙ МУЛОҚОТНИНГ ЯКУНИЙ БОСҚИЧИ ҲАҚИДА: ВЕРБАЛ ВА НОВЕРБАЛ ШАКЛЛАРИ Зарипова Азиза Қахрамоновна	6
2.	ИММУНИЗАЦИЯ ЧАСТО БОЛЕЮЩИХ ДЕТЕЙ ПРИ ЛЕЧЕНИИ РЕСПИРАТОРНЫХ ЗАБОЛЕВАНИЙ Сирожиддинова Хиромон Нурилдиновна, Ортиқбоева Нилуфар Турсунбаевна, Набиева Шоиста Мустафаевна, Абдухалик-Заде Гулнора Ахтамавна	9
3.	ВНУТРИУТРОБНОЕ ИНФИЦИРОВАНИЕ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ ПЕРИНАТАЛЬНОЙ ПАТОЛОГИИ Сирожиддинова Хиромон Нурилдиновна, Усманова Мунира Файзуллаевна, Тухтаева Машхура Мухиддиновна, Абдухалик-Заде Гулнора Ахтамовна	15
4.	РАҦАМЛИ ТРАНСФОРМАЦИЯ ЖАРАЁНИДА ОНЛАЙН ТАЪЛИМ БАҦЗИ МОДЕЛЛАРИ ВА УЛАРНИ ХУСУСИЯТЛАРИ М.С. Кооберганова Баходиров Жасурбек Олёрбек ўғли	23
5.	DIFFERENTIAL VA INTEGRO-DIFFERENTIAL TENGЛАМАЛАР БИЛАН IFODALANUVCHI AYRIM PARAMETRLI AMALIY MASALALARНИ YECHISH Akbarov U. Vohobjonov A.X., Abdusattorova G. A.	30
6.	KONSEPT TUSHUNCHASI VA UNING NAZARIY TALQINLARI Axmedova Saodat	37
7.	2021-YILGI DAVLAT DASTURIDA BELGILANGAN VAZIFALAR Ro'zmetov Mustafo Ismoil o'g'li Karimov Akmal Kurbonboyevich Yusupov Rahimboy Bekbergan o'g'li	43
8.	BOSHLANG'ICH TA'LIM DARSLARINI XORIJY TILLAR БИЛАН INTEGRATSIYALASH VA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI Abdiyeva.D.X, Satiboldiyeva.L.A, Begimqulova.N	46
9.	KOSHINING INTEGRAL VA DALAMBER ALOMATI, UMUMlashGAN GARMONIK QATOR Safayev.U.K, Raxmonova.Sh.S, Komolova.G.Sh	50
10.	BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING NUTQINI O'XSHATISHLAR БИЛАН BOYITISHDA ANVAR OBIDJON ASARLARIDAN FOYDALANISH Axmedova D.B. Yoqubova Hilola	55
11.	ТУГАЛЛАНМАГАН СУИЦИДДАН КЕЙИНГИ БЕМОРЛАР ШАХСИНИ ХАРАКТЕРОВЧИ ИЖТИМОЙ ПАРАМЕТРЛАРИ Усманова М.Б, Солиев Д.М. Исмоилов Э.К.	59
12.	FUNCTIONAL SEMANTIC STUDY OF LEXICAL DOUBLETS IN ENGLISH AND THEIR ETYMOLOGY Shahnoza Mahmudova	64
13.	ТЕМА ЛЮБВИ В ПОЭЗИИ А.АХМАТОВОЙ Олимова Сурайё Алишеровна	67
14.	ЁШЛАР – ДАВР ВА ЗАМОН ЭГАСИ Юлдашев Соатбай Жиянбоевич Халимбетов Юсуп Машарипович Ибрагимова Эльнара Фармандовна	71
15.	ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕК ШЕҶЕРИЯТИДА ХАЛҚОНА ОҲАНГЛАР Муродиллаев Нурали	77
16.	ФОРМИРОВАНИЕ НРАВСТВЕННОГО ОТНОШЕНИЯ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ К ОБЩЕСТВЕННО ПОЛЕЗНОМУ ТРУДУ Абдуазизова Вероника Вадимовна Эргашев Ихтиёр Бахтиёр угли	81
17.	РАЗВИТИЕ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ НА ЗАНЯТИЯХ МАТЕМАТИЧЕСКОГО КРУЖКА Мавлянова Вера Шарифовна	85
18.	РУССКАЯ ПРОЗА XX ВЕКА И МИХАИЛ АФАНАСЬЕВИЧ БУЛГАКОВ	91

Имомов Азамат Тухтаевич		
19.	THE EFFECTIVENESS OF INNOVATIVE INSTRUCTIONAL TECHNOLOGIES IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING Bakhranova Bakhora Bakhranovna	93
20.	SILINDRSIMON G'OVAKKA DINAMIK TA'SIR MASALASI Aqmonova Laylo Qurbonboy qizi	96
21.	NAVRO'Z – UMUMXALQ BAYRAMI Sapayev Rasulbek Davlatovich Xodjayeva Shoxida Sadullayevna Soliyev Abror Muzaffar o'g'li	101
22.	GENETIKAGA DOIR MASALALAR YECHISH METODIKASI Raxmonova Dildora Abdumatalovna	104
23.	СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ПОДГОТОВКИ ШЛАКОВ МЕДНОГО ПРОИЗВОДСТВА Сирожов Талант Толибович Уткирова Шахзода Ихтиёр кизи Муртозаева Мохинабону Мансур кизи	112
24.	TA'LIM JARAYONI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ELEKTRON TA'LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISH Niyozov Muhammad Baxronovich Yuldashev Ulmasbek Abdubanapovich	116
25.	УЧБУРЧАК ШАКЛИДАГИ МИНОРАСИМОН ИНШООТНИНГ ГЕОМЕТРИК ПАРМЕТРЛАРИНИ АНИҚЛАШДА БИР ТОМОНЛАМА ГЕОДЕЗИК УСУЛНИ ҚЎЛЛАНИШИ ТЎҒРИСИДА Назаров Бекчанбой Рустамович	121
26.	MIRAZIZ A'ZAM – VATAN ISTIQLOLINI KUYLAGAN SHOIR Axmedova Dildora Bahodirovna Eshqulova Gulhayo	124
27.	VATANIMIZ TABIATINI O'RGANISHDA INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI M.R. Atabayeva N.O. Saidmuratova	131
28.	ОСОБЕННОСТИ МЕТОДОЛОГИИ ИССЛЕДОВАНИЯ ТЕХНОГЕННЫХ ОТХОДОВ ГИДРОМЕТАЛЛУРГИЧЕСКИХ ЗАВОДОВ Хужакулов Нурмурод Ботирович Рузиев Улугбек Мамарасулович Уткирова Шахзода Ихтиёр кизи Муртозаева Мохинабону Мансур кизи	140
29.	MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MA'NAVIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI Sirojiddinova Nilufar Qodirali qizi Abdurusalova Mohidil Qahramon qizi Daminova Mayluda Murodbek qizi	144
30.	TIL O'RGATISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH VA ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDA O'QITUVCHINING FAOLIYATI Ergashova Feruza Yuldashevna	148
31.	ZAMONAVIY O'QITISH TEXNOLOGIYALARNING O'QITUVCHI FAOLIYATIDA AHAMIYATI Shodiyev Rahimjon Safarovich	153
32.	MUSO TOSHMUHAMMAD O'G'LI OYBEK MA'NAVIY MEROSI – ZAMONAVIY YOSHLAR UCHUN IBRAT NAMUNASI A'zamjonova Saodat Shavkat qizi G.K. Masharipova	157

MIRAZIZ A'ZAM – VATAN ISTIQLOLINI KUYLAGAN SHOIR 29- mart – atoqli shoir Miraziz A'zam tavallud topgan kunning 85 yilligi oldidan

Axmedova Dildora Bahodirovna

BuxDU o'qituvchisi, f.f.f.d. (PhD)

Eshqulova Gulhayo

BuxDU boshlang 'ich ta'lim yo 'nalishi 1- bosqich talabasi.

Annotatsiya: Maqlada Miraziz A'zam bolalar va kattalarning sevimli shoiri, yuksak iste'dod sohibi ekanligi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, shoirning Vatan istiqloli mavzusidagi she'rlari badiiy tahlilga tortilgan.

Tayanch so'z va iboralar: Vatan, shoir, she'riyat, obraz, O'zbekiston, voris, avlod, bashar, zamon, zabon, tahlil, mahorat, rafiq, kelajak, erk, istiqlol.

ЧЕСТЬ СТРАНЫ В СТИХАХ МИРАЗИЗА АЗАМА

Ахмедова Дилдора Баходировна

Преподаватель БГУ, кандидат филологических наук (PhD)

Эшкулова Гульхаё

Студентка БГУ

Аннотация: В статье упоминается, что Миразиз Азам - любимый поэт детей и взрослых, очень талантливый человек. Стихи поэта на тему Родины также включены в художественный анализ.

Ключевые слова: Родина, поэт, поэзия, образ, Узбекистан, наследник, поколение, время, анализ, друг, будущее, свобода.

APPRECIATION OF THE MOTHERLAND IN MIRAZIZ AZAM'S POEMS

Akhmedova Dildora Bahodirovna

A teacher of BSU, PhD

Eshqulova Gulhayo

A student of BSU

Annotation: The article mentions that Miraziz Azam is a favorite poet of children and adults, a highly talented person. The poet's poems on the theme of the Motherland are also included in the artistic analysis.

Key words: Motherland, poet, poetry, image, Uzbekistan, generation, humankind, language, analysis, friend, future, freedom.

Miraziz A'zam ham bolalar, ham kattalar shoiri, yetuk tarjimon, o'tkir jurnalist hamdir. U 1936-yilning 29-martida Toshkentda tavallud topgan. Toshkent davlat dorilfununini tugatgach, Toshkent telestudiyasida, „G'uncha” bolalar oynomasida, so'ngra „Yosh gvardiya”, G'afur G'ulom nashriyotida muharrir bo'lib, ko'p yillar O'zbekiston Yozuvchilari uyushmasida maslahatchi, sarkotib yordamchisi bo'lib ishlagan. Miraziz A'zamning birinchi she'ri talabalik yillarda yozilgan bo'lib, „G'alati tush” (1960) nomi bilan chop etilgan. Keyinchalik u 1927- yilda alohida kitob holida bolalarga sovg'a qilingan. Uning bolalar uchun „Aqli bolalar”(1969), „Senga nima bo'ldi?” (1970), „Yer aylanadi” (1973), „Qirq bolaga qirq savol” (2000) kabi qator she'riy to'plamlari bosilib chiqdi. Shoир ularda bolalarning qalbi va tuyg'ulari orqali olamni, odamni bilishga turli imo-ishoralar bilan , sho'ro imperiyasiga qaram xalqning og'ir hayotini tasvirlaydi. U ichki izhorlar bilan timsollar yaratadi. Miraziz A'zamning jahon adabiyotidan qilgan tarjimalari ham e'tiborga loyiq. U Farididdin Attor, Jaloliddin Rumiy, Nizomiy Ganjaviy, Abdurahmon Jomiy asarlarini; rus, nemis, ingliz, fransuz, turk, italyan shoirlarining ko'plab she'rлarini, shuningdek, jahon bolalar she'riyati namunalarini o'zbek tiliga mahorat bilan tarjima qildi.

Miraziz A'zam qaysi mavzuda qalam tebratmasin, hamisha o'zining so'zini, ya'ni yangi fikr-tuyg'ularini aks ettira oladi. Ayniqsa, uning Vatan mavzusida yozilgan she'rlari oppoq qor ustiga chizilgan, nafis bahor gullaridek betakror. Hamma shoirlar ham Vatan mavzusida qalam tebratadi. Axir, o'zi tug'ilib, tetapoya bo'lgan zamin madhini kuylamagan shoir shoirmi?

Miraziz A'zam Vatanini shunchaki kuylamadi, balki unga ichki olamini, mislsiz go'zal gulshanini jo etdi.Natijada, shunday jonli misralar paydo bo'ldiki, bu she'rлar har qanday loqayd kimsalarning ham qalbini to'lqinlantirib yuboradi. Vatan dardini chuqur bilgan, xalq qalbini his eta olgan shoirgina o'z Vatanini mana shunday go'zal chizgilarda ifoda eta oladi.Bu esa yuksak mahorat. Miraziz A'zam she'riyat haqida quyidagicha fikr bildiradi:,,She'r, menimcha, o'z ichiga insonni, hayotni oladi, yaltiratmasdan, o'z holida, yaxshi va yomon jihatlari bilan birga aks ettiradi.Shoir modomiki atrofiga, insonlarga, insonlarning hayotiga bog'liq yashar ekan, boshqacha bo'lishi mantiqqa to'g'ri kelmaydi.Men adabiyotning xalq manfaatidan boshqa manfaati yo'q deb hisoblovchilar qatorida turaman. Shoир o'z ichinigina tadqiq qilib yozsa, doim muvaffaqiyatli bo'lmaydi. Shoirning ichi jamiyat hayoti bilan parallel kelgandagina, bu o'zini oqlaydi.Sher hayotdan orqada qolishi mumkin emas. Agar she'r orqada qolsa, umuman oldinga yurish bo'lmasa kerak, taxminimcha”.

Vatan mavzusi she'riyatimizda eng o'lmas, o'chmas mavzulardan biri sanaladi. Vatan – shoirlar uchun ilhombaxsh mavzu. Har bir shoir o'z Vatanini har narsadan ustun qo'yadi. Shu o'rinda taniqli shoirimiz Abdulla Oripovning „O'ylarim” she'ridan olingan quyidagi baytlarga e'tibor bersak:,,Vatan! Bor qismatim shu bir

so‘zda hal”. Bunda shoir butun bir qismatini, hayotini Vataniga bog‘laydi. Har bir shoir Vatanni o‘zicha ta’riflaydi, talqin qiladi. Vatan mavzusida Miraziz A’zamga qadar ham ko‘plab shoirlar qalam tebratishgan. Aytaylik, Hamid Olimjon, G‘afur G‘ulom, Mirtemir kabi el ardog‘idagi shoirlarimiz. Miraziz A’zam Vatanini boricha tasvirladi. Uning xursandchiliklari, shodligi bilan birga, g‘am-anduhlari, azoblarini ham betakror misralariga jo etdi. Shu o‘rinda Hamid Olimjon, Abdulla Oripov va Miraziz A’zam she’riyatida aks etgan Vatan obrazi haqida to‘xtalsak, uning o‘xhash va farqli jihatlarini tahlil qilsak.

O‘xhashi yo‘q, bu go‘zal bo‘ston,
Dostonlarda bitgan guliston-
O‘zbekiston deya atalur,
Uni sevib el tilga olur.
Chiroylidir go‘yo yosh kelin,
Ikki daryo yuvar kokilin.
Qorli tog‘lar turar boshida,
Gul vodiylar yashnar qoshida.
Chor-atrofga yoyganda gilam,
Aslo yo‘qdir bundayin ko‘klam...

Shoirning tasvir mahoratiga qoyil qolmay iloj yo‘q. Shoir O‘zbekistonni shu darajada jozibali tasvirlaganki, bu she’rni o‘qigan odam uni ming bir jiloda tasavvur etadi. Tabiatning so‘lim manzaralaridan bahra oladi. Hamid Olimjon she’rda Vatanni go‘zal bo‘stonga, gulistonga qiyoslaydi, el sevib tilga oladigan makonga o‘xhatadi. Haqiqatdan sevsang arziyidigan yurt bu – O‘zbekiston. Hamid Olimjon O‘zbekistonning tabiatiga alohida mehr-muhabbat bilan boqadi, uning o‘xhashini hech qayerdan topmaydi.

Abdulla Oripov esa yurt taqdirini va tarixini o‘zicha mushohada qiladi, yangidan-yangi tasvirlar bilan Vatan go‘zalligini tarannum etadi. Aytish mumkinki, Miraziz A’zam, Hamid Olimjon nigohidagi Vatan bilan Abdulla Oripov nigohidagi Vatan boshqa-boshqa olam.

Goho yosh bolaga o‘xshaydi Vatan,
Sodda, norasida, pok va beg‘ubor.
To ozor yetmasin unga daf’atan,
Begona ko‘zlardan asramoq darkor.

Vatanni sodda, beg‘ubor bolaga o‘xshatish – Abdulla Oripov she’riyatiga xos tushuncha. Abdulla Oripov o‘z Vatanini shu qadar yaxshi ko‘radi, hatto unga ozgina ozor yetib qolishidan ham qattiq qo‘rqadi va begona ko‘zlardan asrash kerakligini ta’kidlaydi. „Iyomon” she’rida esa:

Qanday ko‘kararding, aytgin, birodar,
Agar Vatan degan bo‘ston bo‘lmasa.

Yuksalarmiding yo tog‘larga qadar, Tepangda
cheki yo‘q osmon bo‘lmasa,- deydi.

Shoirning bu she’rida ma’nolar bisyor. Vatan bo‘stonga o‘xshatilgan holda, albatta, uning bag‘ridagi odamlar maysa, gul yoki daraxt timsolida gavdalanishi kerak. Abdulla Oripov bu she’rida tashbeh san’atidan unumli foydalana olgan. Tasavvur qiling, bir nihol o‘sayotib, tepasi bir nimaga tegib tursa, u qaysi tomonga qarab o‘sadi, albatta, egri tomonga. Egri tomonga o‘sgan daraxt yuksala oladimi? - Yo‘q. Inson ham shunday. Vatani tinch, osoyishta bo‘lsagina, kelajakka qarab intiladi, tog‘lar kabi yuksalib, osmonlarni zabit etadi va yoki aksincha.

„Jadidlar adabiyoti yuragimning to‘rida yashaydi.Ular bitta xalq uchun yozish va millat uchun yashash qanday bo‘lishini namuna qilib qoldirganlar. Ulku (ideal)lariga vafo qilmaslik g‘ayrishoirlikdan boshqa narsa emas, deb o‘layman”,- deydi Miraziz A’zam.

Birinchi sentabrda
Chaqnab tursin chiroqlar.
Ko‘chalar yorug‘ bo‘lsin
Hilpirasin bayroqlar.

She’r matnidan bilish mumkinki, shoir birinchi sentabrni boshqalardan ko‘ra ko‘proq kutgan. Bu jarayon shu qadar uzoq bo‘lganki, o‘sha kun kelgach, u o‘z hayajonini, quvonchini aslo yashira olmagan va odamlarni ham o‘z shodligiga sherik qilib, ko‘chalarni chiroqlar bilan yoritishga, bayroqlarni esa hilpiratib qo‘yishga undagan. Bu misralardan yana bir narsa anglashiladiki, chiroqlar yonishi odamlar hayotida yorug‘ kunlarning boshlanishiga, bayroqlar hilpirashi esa bizning ozod ekanligimiz, endi o‘z erk-huquqlarimiz o‘z qo‘limizda bo‘lishiga ishoradir. Shoir she’r mavzusiga aynan birinchi sentabrni asos qilib oladi. Chunki bu kundan boshlab, xalqimiz hayotida yangi tarix sahnasi ochildi. Shoir bunga ishora qilib:

Birinchi sentabrda Yangi hayot boshlandi. Go‘zal hayot qurishga Dadil qadam tashlandi, - deya ta’kidlaydi. Shoir yana bir she’rida: O‘zing yaxshi bilasan,

Arang keldik bu kunga,
Milyonlab berdik qurban,

Tinimsiz yutdik zardob - deya xalqimiz boshidan o‘tgan og‘riqli kunlarni alam bilan xotirlaydi va odamlarni bu kunlarning qadriga yetishga chorlaydi. Haqdan o‘z Vatani uchun panoh bo‘lishini so‘raydi:

Odamlar, asrang endi,
Bu kungi qutlug‘ erkni,
Yo Haq, yorug‘lik yuzin
Ortiq to‘smasin hijob...

Yuqorida ijodlari taqqoslanayotgan ijodkorlarning she’rlarida, shoirlarning erk uchun kurash, mustaqillikka erishish sari olg‘a qadam tashlash, xalqni birdamlikka chorlash kabi g‘oyaviy-badiiy qarashlari o‘z aksini topgan. Miraziz A’zam va Abdulla Oripov she’riyatining o‘xhash jihatlari ko‘p. Ularning orzulari, yurtning kelajagi haqidagi istaklari bir-biriga juda o‘xshaydi. Quyidagi she’rlarni taqqoslash orqali bunga amin bo‘lishimiz mumkin.

Mening ham Vatanim janglar guvohi,
xor. Mening ham ruhimda ajdodlar ohi
zangi bor. (A. Oripov „Armaniston” she’ri)

Mening ham tuprog‘im toptalgandi
Mening ham qonimda qilich

Hammamizning onamizdir shu Vatan,
Yov qoldirgan siynasida ming tikan
Tirikmiz-ku, uni tozalash bizdan
Yur, o‘g‘lonim, elni ko‘tarish uchun.

(M.A’zam „Vatan o‘g‘li” she’ri)

Ikkala she’rning ham tag zamiri bitta ma’noga borib taqaladi, ya’ni ikkala shoirimiz ham yurtimizning qaro kunlarini og‘ir dard bilan xotirlaydi, yurt bilan birga dard chekadi, azoblanadi. Vatan kelajagini yuksak ideallarda tasavvur qiladi. Miraziz A’zam bilan Hamid Olimjon she’riyatida ham o‘xhash jihatlar mavjud. Quyidagi bandlarga e’tibor beraylik:

Men dunyoga kelgan kundanoq
Vatanim deb seni, uyg‘ondim.
Odam baxti bирgina senda
Bo‘lishiga mukammal qondim.
(H.Olimjon „O‘lka”, 1937-yil)
Men birinchi yomg‘ir bo‘lib, yog‘gim
keladi O‘zbekiston yerlariga,
Men keksa chinorlarning salobati bo‘lib,
Qayrag‘ochning metinligi bo‘lib,
Yashagim keladi O‘zbekistonda...
(Miraziz A’zam „Yashagim keladi”)

Ko‘rib turganingizdek, har ikkala shoir ham Vatanni bir-biridan kam sevmaydi. Ular faqatgina mana shu Vatanda baxtli bo‘lib yashagisi keladi. O‘zbekiston tug‘ilgan yurti ekanligidan g‘ururga to‘ladi, buni o‘zlari uchun eng katta baxt deb ataydi.

Abdulla Oripov Vatan mavzusidagi she’rlarida ko‘proq hech kim ishlasmagan tasvirlardan, o‘xhatishlardan foydalanishga harakat qilgan bo‘lsa, Hamid Olimjon O‘zbekistonning tabiatiga ko‘proq e’tibor beradi. Miraziz A’zam esa Vatan haqidagi she’rlarida iloji boricha jimjimadorlikdan qochadi. Ona xalqini da’vatga, Vatanni

asrab-avaylashga undaydi va buni she'rlarida oddiy va lo'nda, tizimli qofiya va serma'no so'zlar bilan ifoda etadi.

Ey gado dil, joni yo'qdan qon tilarsan, vo ajab,
imkon tilarsan, vo ajab...

Kimdaki imkoni yo'q,

Sen Vatanni sutli govmish deb biluvchi telbadan,
Vatanga jon tilarsan, vo ajab.

Nafs qulidan shu

Avvalambor, Vatan bizning onamiz, otamiz, borlig'imiz. Usiz biz hech kimmiz. Usiz biz tirik yetimmiz, aslida. Alloh bizga Vatan berdi, vatansizlardan qilmadi. Biz buning shukrini qilishimiz kerak emasmi? Miraziz A'zam „Ey gado....” deb boshlanuvchi g'azalida o‘z ona Vatanini bir sutli govmish (sigir ma'nosida) deb biladigan telba timsoli va mana shu telbadan Vatan uchun jonini fido qilishini so‘rayotgan inson obrazi gavdalanadi. Shoiring bu so‘rovdan ajablanishi g‘ayrioddiy hol. Negaki, o‘z qornidan, o‘z tashvishlaridan boshqa ishi yo'q, Vatanni faqat boyliklari uchun sevadigan telba, shoir ta'biri bilan aytganda, nafs quli, hech zamonda Vatan uchun o‘limga tayyor bo‘la oladimi? Bunday kimsalar yurting og‘ir damlarida pana-puchmoqlarga yashirinib olib, dorilomon paytlarda gerdayib davraning to‘rini bermaydigan qalloblar kabidir. Biz bunday kimsalarni hech qachon kechirmaymiz. Ular Vatan tuprog‘ida yashashga noloyiq. Ular aslida „Vatani bor bevatanlardir”.

Odam bo‘lib, bizni quchog‘ida o‘stirib-ulg‘aytirgan Vatan koriga yaramasak, uning og‘ir damlarida bir tan-u bir jon bo‘lmasak, biz qanday inson bo‘ldik?

Maqola Miraziz A'zam she'riyatining tarbiyaviy jihatlarini ochib berishga yo'naltirilgan. Miraziz A'zam – chinakam iste'dodli shoir. Uning Vatan haqidagi she'rlarini o‘qir ekanmiz, ko‘z oldimizda ona yurtimizning o‘tmishi va buyuk kelajagi gavdalanadi, yonginamizdan tarixning achchiq haqiqati birma-bir o‘ta boshlaydi. Shuni xulosalab ayta olamanki, Miraziz A'zam she'riyati yosh kitobxonlar, qolaversa, o‘sib kelayotgan yosh avlod, kattalar va kichiklar uchun birday tarbiyaviy ahamiyatga ega. Yoshlarimiz Miraziz A'zam she'riyatini qanchalik chuqurroq o‘rganishsa, shunchalik o‘z Vatani haqida chuqr tasavvurga ega bo‘ladi. Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbati ortadi, ajdodlarimizga bo‘lgan cheksiz havasi yanada ko‘payadi. Ularga o‘xshashni orzu qilishadi, shuning uchun Miraziz A'zam hayoti va ijodini kengroq targ‘ib qilishimiz, shoir ijodiga oid kitoblarni ko‘proq nashr ettirib, yoshlar o‘rtasida targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borsak, maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Miraziz A'zam she'riyatining mislsiz, go‘zal gulshanida sayr qiling, ishonamanki, bu go‘zal bo‘ston sizni ohanraboday o‘ziga jalb etadi va bu gulshanni aslo tark etishni xohlamay qolasiz. Zero, Miraziz A'zam haqidagi xotiralarida Xurshid Davron yozganidek: „Miraziz A'zam o‘zbek she'riyatidagi eng to‘g‘riso‘z shoirlardan biridir. U hamisha va har qanday sharoitda haqiqat vaadolat tomonida turishni, hayoti va ijodining asl maqsadi deb biladi. Bolalarga yozgan she'rlarida ham

ularni qadimiy yurtga, ona xalqiga munosib farzand bo‘lishga da’vat etdi. Dunyo she’riyatiningadolat va erk tuyg‘ulari mavjud asarlarinigina tarjima qildi. She’riyatining har bir satrida millat bilan Vatanga va ayol bilan farzandga bo‘lgan buyuk muhabbatini jo etdi”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamasoli Jumaboyev. Bolalar adabiyoti (darslik-majmua). Toshkent, „O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008. – 246-251- betlar.
2. Miraziz A’zam. Shu so‘lim yurt egasiman. Toshkent – Chinor ENK-2016.
3. Miraziz A’zam. Saylanma (yoshlar uchun asarlar). She’rlar, nazm, badiiy adabiyot. Toshkent, Cho‘lpon-2015. – 528 bet.
4. Miraziz A’zam. Yer aylanar (she’rlar, nazm). Toshkent - 1978. – 40 bet.
5. Miraziz A’zam. Eng yorug‘ yulduzlar. Sharq-2002. –112 bet.
6. Akhmedova D.B., Mametjumayeva G.R. Forming Writing Skills in Left-Handed Student stages and Methods of Analyzing the texts of a book in Primary School|| Middle European Scientific Bulletin. Volume 10, Number 1, March 2021.

UzACADEMIA

**ILMIY-USLUBIY JURNALI
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL**

ISSN (E) – 2181 - 1334

BARCHA SOHALAR BO‘YICHA

**VOL 2, ISSUE 1 (12), MARCH 2021
PART - 1**